



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

### BIR YILLIK DORIVOR O'SIMLIKLARNING KIMYOVIY TARKIBI VA ISHLATILISHI

**J.M. Yarmuhammedov**

*BuxDU o'qituvchi*

**Sh.Sh. Norova**

*BuxDU talaba*

**A. Dilmurotova**

*BuxDU talaba.*

**Annotatsiya:** Yer yuzida dorivor o'simliklarning 10-12 ming turi bor. O'zbekistonda dorivor o'simliklarning 577 turi mavjud. Ma'lumki dunyo miqyosida tibbiyot sohasida ham bir yillik dorivor o'simliklardan samarali foydalanib kelinmoqda. Masalan: ularning urug'i, bargi, mevasi, gulidan foydalanib kelinadi. Ushbu maqolada bir yillik dorivor o'simliklarning kimyoviy tarkibi va ularni turli sohalarda ishlatilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Bir yillik, dorivor, kimyoviy tarkib, kunjut, kanakunjut, dorivor moychechak, uch bo'lakli qoraqiz (Ittikanak), uch rangli binafsha.

### KIRISH

Dorivor o'simliklar-o'zida odam va hayvon organizmlariga ta'sir qiluvchi biologik faol moddalarni saqlovchi, tibbiyot maqsadida foydalaniladigan o'simliklardir. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida 112 tur dorivor o'simliklar rasmiy tabobatda foydalanishga berilgan bo'lib, ushbu dorivor o'simliklarning 80% ni tabiiy holda o'suvchi o'simliklar tashkil qiladi.

Kunjut- (*Sesamum indicum* L.) kunjutsimonlar- *Pedaliceae* oilasiga kiradi. Kunjut bo'yi 60-100 sm ga yetadigan o't o'simlik. Poyasi tik o'suvchi, tukli, yashil, yoki qizg'ish, 4-8 qirrali bo'lib, turli shaklda: pastki qismlaridagi yumaloqroq, yuqori qismidagi barglari esa ingichka, o'rta qismidagilari lansetsimon yoki cho'ziq tuxumsimon. Guli yirik 1-3 ba'zan beshtadan barg qo'ltig'ida joylashgan.



1-rasm. Kunjut- (*Sesamum indicum* L.)



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

Kimyoviy tarkibi- kunjut urug'i tarkibida 60% gacha moy, E vitamini, factor-T, sezamin, sezamon, sezamanin va boshqa moddalar bo'ladi. Kunjut moyi 3-60S temperaturada qotadigan sariq rangdagi suyuqlik bo'lib, yarim quruvchi moylarga kiradi. Kunjut moyi tarkibida alein, linol, pavletin, stearin, araxin va lignotserin kislotalarining glitsiridlari uchraydi.

Ishlatilishi - kunjut moyi dorivor moddalarini yetishtirishda surtma va malhamlar tayyorlashda ishlatiladi. Kunjut moyi qondagi trombositlarni sonini oshiradi va qon ivishini tezlashtiradi. Shuning uchun ham u ba'zan qon kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Kunjut moyi va urugi oziq-ovqat sanoatida ko'p ishlatiladi.

Dorivor moychechak- (*Chamomilla recutita*) Matricaria recutita. Moychechak turlari astradoshlar (murakkabguldoshlar)- *Asteratseae* (Compositae) oilasiga mansub, bo'yi 15-40 sm keladigan bir yillik o't o'simlik. Poyasi tik o'sadi, sershox. Barglari ingichka chiziqsimon. Gullari uzun bandl.



### 2-rasm. Dorivor moychechak- (*Chamomilla recutita*)

Kimyoviy tarkibi - Moychechak turlarining guli tarkibida 0.12-0.8% efir moyi, flavok glikozidlari (apiin, kversimeritrin va boshqalar, matrikarin, prodamvaulen, kumarinlar), karotin, vitamin C, shilliq, achchiq va boshqa moddalar bor. Efir moyi 1.64-8.99% xamazulen, 20% gacha seskviterpen spirtlar, kadinen va boshqa terpenoidlardan tashkil topgan.

Ishlatilishi - Gulining damlamasi me'da-ichak (ichak yopishib qolganda va ich ketganida) va ginekologik kasalliklarni davolashda hamda ter va yel haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi. Moychechak guli yana ichni yumshatuvchi, antiseptik va yallig'lanishga qarshi(og'iz, tomoq chayishda hamda shifobaxsh vanna va xuqna qilishda) dori sifatida ishlatiladi. Moychechak guli me'da kasalliklarida, tomoq chayishda ishlatiladigan va ich yumshatuvchi yig'ma-choylar tarkibiga kiradi.

Uch bo'lakli qoraqiz (Ittikanak) - (*Bidens tripartite.*) Astradoshlar (murakkabguldoshlar) *Asteraceae* (Compositae) oilasiga mansub, bo'yi 15-60 sm ga yetadigan bir yillik o't o'simlik. Poyasi tik o'sadi, asos qismidan boshlab qarama-



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

qarshi shoxlangan. Barglari uchi nashtarsimon. Mevasi-cho'ziq teskari tuxumsimon pista. Iyun-sentabr oylarida gullaydi.



**3-rasm. Uch bo'lakli qoraqiz (Ittikanak) – (*Bidens tripartite*.)**

Kimyoviy tarkibi- yer ustki qismi tarkibida 28.3-61.26 mg% karotin, 74.8-95.3 mg% vitamin C, efir moyi, 3.55% gacha polifenollar, falovonoidlar, 4.3-6.8% oshlovchi, shilliq, achchiq va boshqa moddalar bor.

Ishlatilishi - yer ustki qismining damlamasi bolalarning diatez va ba'zi teri kasalliklariga shifobaxsh vannalar qilishda hamda ba'zan siydik haydovchi, terlatuvchi va ovqat hazmini yaxshilovchi vosita sifatida qo'llaniladi. Bundan tashqari yer ustki qismidan tayyorlangan damlama yoki qaynatmasi xalq tabobatida shirincha, raxit, podagra, jigar va taloq kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Damlamasi yana terlatuvchi, siydik haydovchi, qon oqishini to'xtatuvchi va ishtaha ochuvchi vosita hamdir. Ba'zan rak kasalligining ba'zi turlari davolanadi.

Uch rangli binafsha - (*Viola tricolor*.) Binafshadoshlar oilasiga mansub bir yillik o'simlik. 15 sm gacha o'sadi. Tanasining ichi teshik. Barglari ketma-ket, oddiy, tukli, pastki qismi uzunchoq elitsga o'xshaydi. Gullari yakka ko'k-safsar rangda har xil tovlanib turadi.

Kimyoviy tarkibi- yer ustki qismida flavonoidlar (rutin, violakversetin), efir moylari, vitamin C, karotinoidlar, saponinlarga boydir.

Ishlatilishi- uch rangli binafsha tabobatda balg'am ko'chiruvchi, terlatuvchi, siydik haydovchi, ich o'tkazuvchi, mikroblarga qarshi, tinchlantiruvchi, agarda ko'p iste'mol qilinsa qayt qildiruvchi sifatida qo'llaniladi.

Oddiy kanakunjut - (*Ricinus Communis* L.) Sutlamadoshlar *Euphoreiaceae* oilasiga mansub bir yillik o't o'simlik bo'lib, bo'yi 2 m ga yetadigan o'simlik. Poyasi shoxlangan. Bargi yirik, tuksiz, 5-11 barmoqsimon bo'lakli bo'lib, barg plastinkasining markaziga o'rnashgan uzun bandi bilan poyada ketma-ket joylashgan. Barg bo'lakchalari cho'ziq tuxumsimon, cheti tishsimon qirrali. Gullari shingilga toplangan. Guli bir jinsli, gulqo'rg'oni oddiy, onalik gullari shingilning yuqori qismida, otalik gullari esa pastki qismiga joylashgan. Mevasi uch urug'li, uch



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

chanoqli, tikan bilan qoplangan ko'sak. Ko'sak pishganda yoriladi va urug'lari sochilib ketadi.



**4-rasm. Oddiy kanakunjut – (*Ricinus Communis* L.)**

Kimyoviy tarkibi-urug'i tarkibida 40-56 %qurimaydigan moy, 14-17% oqsil moddalar, 0.1-1% ritsinin va nikotin alkaloidlari, klechatka va boshqa shu kabi moddalar mavjud.

Ishlatilishi: Kanakunjut moyi tibbiyotda yaxshi surgi dori sifatida ishlatiladi, ginikologiyada va ko'z kasalliklarida, yaralarni davolashda, tananing kuygan yerini va moyi soch o'sishiga yordam beradi. Moyi past bosimda, 240-300° C ga qizdirilib, o'simlik tarkibidagi ritsinol kislota parchalanib, geptaldegid etantol va undetsilen kislota hosil qiladi. Hosil bo'lgan undetsilen kislota fungitsid (parazit zamburug'larni o'ldiradigan) xossaga ega bo'lganidan teri kasalliklari – dermatozlar hamda psoriaz kasalliklarini davolashda qo'llaniladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.A.Sobirov, N.T.Farmonova, Z.S.Saloxiddinov, M.Z.Rizamuxammedova (2019), Dorivor o'simliklar atlas, Toshkent-Noshir -2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 noyabrdagi PQ-4901-son "Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug'chiligini yo'lga qo'yishni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4901- sonli qarori. – Toshkent, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 maydagi "Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-251-sonli qarori. –Toshkent, 2022.



## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"**

4. O'.Ahmedov, A.Ergashev, A.Abzalov, M.Yulchiyeva, D.Mustafakulov Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiyasi."Tafakkur-bo'stoni" nashriyoti Toshkent - 2018
5. Yuldoshov Laziz Tolibovich Yarmuhammedov Jasur Mansurovich, Shodmonov Feruzjon Qamariddinovich AGROBIOTECHNOLOGY OF CULTIVATION RICINUS COMMUNIS L. IN THE CONDITIONS OF THE BUKHARA KHOREZMSCIENCE.UZ 89-95 b.
6. Yarmuhammedov J. TUPROQ SHO'RLANISHINI MONITORING QILISHNING ZAMONAVIY USULLARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 43. – №. 43.